

EMOTSIONAL NUTQNI IFODALASHNING LINGVOKOGNITIV MODELI

A'zamova Gulasal Sodiq qizi

Farg'ona davlat universiteti chet tillari kafedrası v.b.dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

gulasalazamova91@gmail.com

ORCID ID 0000-0002-6852-5087

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14892025>

Annotatsiya: Emotsional leksika so'zlovchi yoki yozuvchi his-tuyg'ularini ifodalashi uchun foydalanadigan so'z yoki so'z birikmalaridir. Emotsional va baholovchi so'zlar boyligi milliy ong, milliy madaniyat, an'ana va urf-odatlar bilan uzviy bog'liq. Tilda hissiyotlarni namoyon etish maxsus hissiyotga oid so'z va so'z birikmalari yordamida amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: kognitiv, emotsiya, mazmun, tushuncha, leksik, sintaktik, fonetik, lingvokognitiv, obrazlar, kommunikativ, strategiya, nutq, pragmatik, kontekst.

Emotsionalikni ifodalovchi leksik vositalar har bir tilning maxsus qatlamini tashkil etadi. Emotsional leksika so'zlovchi yoki yozuvchi his-tuyg'ularini ifodalashi uchun foydalanadigan so'z yoki so'z birikmalaridir. Emotsional va baholovchi so'zlar boyligi milliy ong, milliy madaniyat, an'ana va urf-odatlar bilan uzviy bog'liq. Bu til va ijtimoiy tajribani mujassamlashtiruvchi vosita bo'lib, hissiyotlar shu milliy madaniyatning bir qismidir. Emotsional munosabatlar esa – his-tuyg'ularning ifodasidir.

Hissiyot shaxs uchun ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin va shu munosabatni ifodalovchi hamda insonning amaliy faoliyati va uning natijasini aks ettiruvchi maxsus psixologik holatdir. Hissiyotlarning lingvistik talqinining murakkabligi uni o'rganishga qiziqishni keltirib chiqaradi. Hissiyotni o'rganish muayyan hissiyotning yuzaga kelish sabablari va shartlarini birlashtiruvchi tushunchalarning murakkab tavsifi bilan amalga oshiriladi. Hissiyot umumbashariy hodisadir. Lekin, his-tuyg'ularning o'zgarishi shiddatligi biroz boshqacha xarakterga ega. Agar bir kishining hissiyoti va uning ifodasi yaqqol va kuchli namoyon bo'lsa, unda boshqa bir kishiniki kamroq namoyon bo'lishi mumkin.

Muloqot murakkab mexanizm bo'lib, muloqot jarayonida ko'plab lingvistik va nolingvistik omillardan foydalaniladi. Muloqot nafaqat axborotning mantiqiy mazmunini, balki gapirayotgan shaxsning ruhiy holatini, hissiyotini, istaklarini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda til o'zining emotiv (emosional-ekspressiv) funksiyasini bajarishga kirishadi.

Emotivlik kontseptsiyasi va ularni tilda taqdim etishga bo'lgan talab, tushunchalarning turli-tuman kategoriyalarini joriy etishga olib keldi. Hissiyotlarni kategoriyalash bilan bir qatorda ularning asosiy jihatlarini aniqlash, shuningdek, tizimli modellashtirish ham yangilandi. So'nggi paytlarda hissiyot lingvokognitiv, psixolingvistik, lingvokulturologik va lingvistik hodisa sifatida o'rganilmoqda. Bunday tadqiqotlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to'ldiradi. Tilda hissiyotlarni namoyon etish maxsus hissiyotga oid so'z va so'z birikmalari yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda his-tuyg'ularni lisoniy aks ettirishning turli jihatlarini ko'rib chiqilmoqda, chunki tilning nafaqat leksik, balki boshqa barcha "qatlamlari" ham hissiyotlarni ifodalashning maxsus vositalari hisoblanadi. Bular: hissiyotlarni namoyon qiluvchi leksik birliklar; stilistik va sintaktik vositalardir.

Shu bilan birga, L.G. Babenko ta'kidlaganidek, "bu yerda asosiy rol, albatta, leksikaga tegishlidir". Tadqiqotchilar hissiyotlarni namoyon qilishning leksik vositalarini turlicha tahlil qiladilar.

Affektivlar (ta'sirli so'zlar) (undov, haqoratli va mehrli so'zlar, hissiy va kuchaytiruvchi sifatlar va ravishlar) maxsus emotivlar deb hisoblanishi mumkin, chunki his – tuyg'ularning ifodalanishi bunday so'zlarning asosiy va yagona maqsadi hisoblanadi.

Konnotativlar (ikkinchi darajali, majoziy ma'nodagi hissiy so'zlar, emotiv-subyektiv baho qo'shimchali yasama so'zlar va hokazolar) hissiyotni bilvosita mantiqiy-ob'ekt semantikasi orqali ifodalaydi. Emotiv so'z turkumlarining tasnifi kategorial-leksik semalarning kategorial-semantik semalar (“holat”, “munosabat”, “ta'sir” kabi) bilan birikishi asosida tuzilishi mumkin.

V.V. Vinogradovning ta'kidlashicha, hissiyotlarni namoyon qiluvchi g'azab, xursandchilik, uyat, afsus, hasad va boshqa “bir qator so'zlar”ning ma'nolari holat kategoriyasining bir qismi bo'lib, emotiv maydonning leksikasi bir vaqtning o'zida boshqa leksik-semantik maydonlarga (paradigmalarning kesilishi) tegishli bo'lishi ham mumkin va tilning leksika va semantikasining tizimli bog'liqligini isbotlaydi. Shu bilan birga, bunday so'z birikmalarini emotivlik qatoridan butunlay chiqarib tashlash tendentsiyasi kuzatiladi. Masalan, “hissiyotlarni ifodalovchi so'zlar, emotiv emas, balki indikativ, mantiqiy-ob'ektiv: “g'azab”, “baxt”, “afsus”, “sharmandalik”, “hasad” va boshqalar bo'lishi mumkin. L.G. Babenkoning fikriga ko'ra, “emotiv so'z birikmalarining asosiy guruhlari grammatik va semantikdir. Grammatik guruhlarga emotiv fe'llar, otlar, sifatlar, ravishlar, holat kategoriyasidagi emotiv so'zlar va undov so'zlar kiradi”.

Semantik guruhlarga emotsional holat so'zlarining funksional-semantik guruhi, emotsional holatning shakllanishi, emotsional ta'sir, emotsional munosabat, hissiyotni tashqi tomondan ifodalaydigan emotsional so'z va sifatlar kiradi.

Leksik va funksional semantikani hisobga olgan holda emotiv so'z turkumlari L.G. Babenko qo'llanmasida quyidagicha taqsimlanadi:

1. Asosiy emotivlar-nominativlar (ot, sifat, fe'l va ravish):

1) xursandchilik turining boshlang'ich kategorial-emotiv leksik semantikasi bilan hissiyotlarning birlamchi izosemik predikatlari;

2) Turg'unlik turidan tashkil topgan emotiv semantika va hissiyotlarning ikkilamchi izosemik bo'lmagan predikatlari;

2. Emotivlar-nominativ qo'shimchalar:

1) Implisit (yashirin) hissiyotlarning ahmoqona tikilish/nigoh kabi differensialemotiv leksik semantikaga ega predikatlari kiritilgan;

3. Emotiv-nominativ ekspressivlar:

1) Oh! Voh! kabi (Undov) turiga kiradigan emotiv semantika tashuvchi emotivekspressivlar;

2) be'mani semantikali emotiv-konnotativlar. Ingliz va o'zbek badiiy adabiyotlardan ayrim misollarni ko'rib chiqsak, (1) Oh, he is marvelous (2) Ah, sir, ask no more, ask no more of poor Dobby (3) Oh, otaginam, otaginam, sizga qora dev hamla qilibdi, suf, suf, suf (4) Voy o'lmasam, shokoladni qizingiz yebdi. Dilbar, qurib ketmagur, tur o'rningdan

Yuqorida keltirilgan misollarning birinchisida asosiy emotivlar-nominativning xursandchilik turi “marvelous” so'zi orqali ifodalanishi, bundan tashqari aynan shu jumlada “Oh” undov so'zi personajning mavjud vaziyatdan hayajonlanganligini bildiradi.

Keyingi ikkinchi misolda ham “Ah” (interjection) undov so'zi va “poor” sifati orqali asosiy emotivlar-nominativlik mavjudligini aniqlashimiz mumkin. Keyingi o'zbek tilidagi misollarda ham “Oh” va “Voy” kabi hissiy holatdan darak beradigan undov so'zlar hamda “qora dev”, “qurib

ketmagur” birikmalarni uchinchi ya’ni emotiv-nominativ ekspressivlar turiga kiritishimiz mumkin. Turli tillarda mavzuning hissiy holatini tavsiflovchi maxsus birliklar mavjud. V.I. Shakhovskiy ingliz tilidagi materiallar asosida misollar keltiradi:

1) ravishlar-icily, viciously, lovingly, va boshqalar.

2) fe’llar – wail, shriek, whine va boshqalar.

3) with^ withlove/ malice, dislust predloglari va barcha emotive terminlarni o’z ichiga olgan otlar.

Xulosa: Tilda so’zlar orqali ifodalab bo’lmaydigan hissiyotlarni namoyon qilish uchun kengaytirilgan iboralar ishlatiladi va bu iboralar emotiv so’zlar bilan teng maqomda ishlatiladi. Bu tavsiflarga ko’ra so’zlovchining his-tuyg’ulari tasvirlanadi va ularning hissiy holatlari aniqlanadi. Har qanday til so’zlovchining biror ob’ekt yoki hodisaga hissiy munosabatini, uning ijobiy yoki salbiy bahosini ifodalovchi komponentlarni o’z ichiga olgan so’zlarga boydir.

References:

1. Halliday, M. A. K. (1978). *Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning*. London: Edward Arnold.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
3. Damasio, A. (1999). *The Feeling of What Happens: Body and Emotion in the Making of Consciousness*. New York: Harcourt Brace.
4. Scherer, K. R., & Wallbott, H. G. (1994). Evidence for Universality and Cultural Variation of Differential Emotion Response Patterning. *Journal of Personality and Social Psychology*, 66(2), 310–328.
5. Pavlenko, A. (2005). *Emotions and Multilingualism*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Azamova G.S., Khojaliyev I.T. The concept of equivalence in translation and its interpretations. *SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY* 2022.
7. A'zamova G. NATIONAL-CULTURAL NOTIONS AND THEIR COMBINATION IN ENGLISH AND UZBEK WORKS. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/1599/1492>
8. Hojaliyev, A'zamova G. Methodology and significance of meaning in translation of uzbek literature.
9. A'zamova G. SCIENTIFIC AND THEORETICAL FUNDAMENTALS OF COGNITIVE CONCEPT IN LINGUISTICS.
10. Г. Азамова. УЛУЧШЕНИЕ УСТНОЙ ПРАКТИКИ